

FINTECH TEXNALOGIYALRI ASOSIDA O'ZBEKISTON SOLIQ VA BOJXONA TIZIMINING RAQAMLASHTIRISH: SAMARADORLIK VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Amirqulova Mashhura Asliddin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti

Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishi 2- bosqich talabasi

e-mail: mashhuraamirqulova6@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17695638>

ARTICLE INFO

Received: 11th November 2025

Accepted: 12th November 2025

Published: 24th November 2025

KEYWORDS

fintech, raqamli iqtisodiyot, soliq tizimi, bojxona tizimi, my.soliq.uz, customs.uz, raqamlashtirish, elektron hukumat, blokcheyn, raqamli to'lovlar, elektron deklaratsiya, kiberxavfsizlik.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqola O'zbekiston soliq va bojxona tizimida Fintech texnologiyalarini joriy etish jarayonini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida raqamlashtirishning huquqiy asoslari yoritiladi. My.soliq.uz va Customs.uz platformalarining funktsionalligi, raqamlashtirishning shaffoflik, byudjet tushumlari va jarayonlar tezligi kabi ko'rsatkichlarga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida baholanadi. Shuningdek, FinTech and Banking Forum hamda bojxona tizimida joriy etilayotgan "Yo'lovchi deklaratsiyasi", elektron navbat va Z-portal kabi raqamli yechimlar o'rganiladi. Tadqiqot Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi bilan taqqoslanib, O'zbekiston uchun takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

KIRISH

XXI asr hayotimizning har qaysi jabhasini texnologiyalarsiz tasavvur eta oladigan davr desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga toki inson tug'ilganidan to vafot etgunicha jarayon raqamlashtirganligidan ham dalolat. Deyarli barcha davlat xizmatlari raqamli tizimga o'tayapti va fuqarolarga birmuncha yengilliklar yaratmoqda. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida davlat moliyaviy boshqaruvini raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Xususan, soliq va bojxona tizimlarida moliyaviy operatsiyalarini elektron shaklda o'tkazish, to'lov jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan Fintech texnologiyalari jadal joriy etilmoqda. Yurtimizda 2020- yildan boshlab soliq to'lovlarini elektron shaklga o'tkazish fiskal ma'lumotlarni onlayn kuzatish, elektron bojxona tizimini rasmiylashtirish hamda blokcheyn asosida yuk monitoringi tizimlarini joriy etish bo'yicha o'zgarishlar boshlangan. Xususan soliq tizimida My.soliq.uz kabi soliq majburiyatlari bajarishning qulay va ishonchli usul sifatida qaralayotgan elektron xizmatlar portali joriy qilindi. Bojxona tizimida custom.uz elektron xizmatlari platformasi samarali faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari Bojxona qo'mita tomonidan "Yo'lovchi deklaratsiyasi" va Z portal tizimining joriy etilishi aholiga ko'plab qulayliklar bermoqda. Ushbu sohani takomillashtirish uchun joriy yilda Toshkentda Bojxona faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha xalqaro konfrensiya bo'lib o'tdi. Shuningdek, joriy yilda Toshkentda moliyaviy texnologiyalar va raqamli innovatsiyalar sohasidagi muhim tadbirlardan biri FinTech and Banking Forum (FIBA) bo'lib o'tdi. Umuman olganda, moliyaviy texnologiyalar sohasini rivojlatirishga doir qadamlar soni ortmoqda. Bu albatta Singapur, Korea Estoniya kabi moliyaviy texnologiyalar rivojlangan davlatlar tajribasi asosida yo'lga qo'yilmoqda. Ularning ijrosini ta'minlash nafaqat amaliy balki huquqiy jihatdan

ham tartibga solinishni talab qilmoqda. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlar to'g'risida"gi va "Elektron tijorat to'g'risidagi" qonuni muhim o'rin egallaydi.

TADQIQOT MAQSADI

Tadqiqot maqsadi - O'zbekiston soliq va bojxona tizimida Fintex texnologiyalarini joriy etish orqali raqamlashtirish samaradorligini aniqlash, raqamli platformalarning amaliy natijalarini tahlil qilish va raqamlashtirish orqali shaffoflik, byudjet tushumlari hamda jarayonlarning tezligi va aniqligini oshirish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat. Tadqiqot doirasida mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari hamda rivojlangan davlatlar tajribasining solishtirma tahlili o'rganiladi.

TADQIQOT VAZIFALARI

1. Soliq va bojxona sohasini raqamlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy bazani tahlil qilish;
2. "my.soliq.uz" va "customs.uz" platformalarining funkcionalligini o'rganish;
3. Raqamlashtirishning byudjet tushumlari va shaffoflikka ta'sirini baholash;
4. Mavjud muammolarni (raqamli savodxonlik, infratuzilma, kiberxavfsizlik) aniqlash;
5. Estoniya, Singapur va Janubiy Koreya tajribasini solishtirib, takliflar ishlab chiqish.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

IBM (International Business Machines Corporation) fintech atamasi va uning ahamiyati haqida o'z saytida qisqacha takidlab o'tgan. Unga ko'ra, **fintech** – bu foydalanuvchilarga va korxonalariga moliyaviy faoliyatlarini raqamli tarzda boshqarish imkonini beruvchi mobil ilovalar, dasturiy ta'minot va boshqa texnologiyalarni ifodalaydi[1]. Soliq tizimda raqamlashtirishda asosiy elektron xizmatlari portali ta'kidlanganidek **my.soliq.uz** hisoblanadi. Ushbu portal jismoniy, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkor va o'zini o'zi band qilgan fuqarolar uchun soliqqa oid xizmatlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bundan ma'lumki, bu tizim Elektron hukumatning G2C va G2B (ing. Government to Citizens va Government to Business) modeliga mos tushadi. Hozirda portal orqali 35 ta elektron davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda. Bundan 15 tasi – axborot davlat xizmati bo'lsa 20 tasi – interaktiv davlat xizmati sanaladi. Portalning asosiy maqsadi davlat soliq organlari tomonidan davlat xizmatlarini optimallashtirish, ularning sifatini oshirish, xarajatlarini kamaytirish va soliq to'lovchilarni ushbu xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish hisoblanad[2]. Bojxona tizimida raqamlashtirishda asosiy platforma **custom.uz** hisoblanadi. Tizim o'z faoliyatini Budget kodeksi asosida amalga oshiradi. Soliq qo'mitasi tomonida yo'lga qo'yilgan ushbu platforma yo'lovchilar va yuk tashuvchilarga vaqt va naqtini tejashga yordam bermoqda. Bojxona o'z faoliyatini "Davlat bojxona tizimi to'g'risidagi" qonunda keltirilgan prinspl va vazifalar asosida olib boradi. Xususan;

1. jismoniy va yuridik shaxslarning huqu va erkinliklari ham qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;
2. o'z vakolati doirasida iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishi;
3. bojxona to'lovlarini undirish;
4. bojxona nazorat va rasmiylashtirishni amalga oshirish;
5. fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
6. xalqaro shartnomalarning bojxona ishiga taaluqli qismidan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarish[3];

Bojxona organlari ushbu vazifalarni turli dasturlar va custom.uz kabi platformalar orqali amalga oshiradi. Xususan, yo'lovchilar "Yo'lovchi deklaratsiya" mobil ilovasi orqali bojxona deklaratsiyasini qog'ozda emas, smartfon orqali onlayn to'ldirish mumkin. Hozircha bu tizim "Toshkent" xalqaro aeroportida sinov tariqasida ishga tushirilgan. Bojxona qo'mitasini bayon qilinishicha, joriy yilning 1-noyabridan boshlab barcha chegara o'tkazish punktlarida to'liq ishga tushishi ta'kidlangan. Ushbu mobil ilova prezidentning 2025 yil 25 martidagi 57-sonli farmoni asosida ishlab chiqilgan. Chegaralarda inson oqimi va buyrokartik to'siqlarni qisqartirish maqsad qilingan[4]. Bundan tashqari Rossiya tomonidan ishlab chiqilgan Z portal tizmi mavjud. Tizm avtomobil va yuk mashinalarini tez va to'liq tekshirishga mo'ljallangna rentgendir. Uning ishlash mexanizimi – mashinani yon tomondan va yuqoridan bir vaqtning o'zida skanerlab, 6 ta tasvir oladi va shu asosida mashinalardan noqonuniy mahsulotlar mavjud mavjudmasligini tekshiradi. Z Backstter texnologiyasi organik kontrabandani aniqlashga yordam beradi. Ya'ni narkotik va sigareta kabi noqonuniy mahsulotlarini aniqlashga yordam beradi. Forwardscatter texnologiyasi esa zich metal materiallarni aniqlashga yordam beradi. Hozirda tizim 1 soatda 400 ta yengil moshina yoki 25 ta yuk mashinasini tekshira oladi. Uni mavjud nazorat postlariga oson o'rnatishi mumkin[5]. Hozirda Qoraqalpog'iston hududa joylashgan "Dovud Ota" chegara postida qurilmasini sinov jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu o'z navbatida mahsulotlarini o'z vaqtida xavfsiz va ziyonsiz yetkazib berish imkoniyatlarini bermoqda. Shuningdek, yuk mashina haydovchilari uchun elektron navbat tizimi ham yo'lga qo'yilgan. Bu bojxona postlarida haydovchilar qo'shimcha to'lovlar evasizga bojxona nazoratidan navbatsiz o'tish imkonini bermoqda. Ushbu tizim Vazirlar Mahkamsining 29.01.2025 yildagi 44-sonli qarori asosida yo'lga qo'yilgan[6]. Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirishdagi muhim jarayonlardan biri Toshkentda FinTech and Banking Forum (FIBA) tadbirining bo'lib o'tganligi hamdir. Forumda global bank yetakchilari, regulyatorlar va to'lov tizimi bo'yicha innovatorlar kabi mutaxassislar mujassam bo'lib, moliyaviy texnologiyalarning yangi avlodini to'g'risida qarashlar bayon etildi. Bizneslar tadbirkorlar va fuqarolarga teng imkoniyat beradigan, inklyuziv va xavfsiz raqamli moliyaviy muhit yaratishi ucharshuvning asosiy maqsadi etib belgilandi[7] Forumdan qisqa olgan xulosa shundaki, fintech bu faqat texnologiyalar emas balki, bu tadbirkorlik subyektlariga va fuqarolarga yaratilayotgan imkoniyatlar demakdir


NATIJALAR VA STATISTIKA

Soliq tizimida raqamlashtirish avvalo davlat budjetida tushumlarni tez va to'liq tushushini ta'minlab berdi. Davlat soliq qo'mitasining malumotiga ko'ra, 2019-yil davlat budget daromadlari **31 676,8 trlni** tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib yillik davlat daromadlari **90 833 trlni** tashkil etganini ko'rish mumki[8]. Bundan ko'rinib turibdiki, soliq tizimida raqamlashtirish davlatning iqtisodiy siyosatini qat'iy amalga oshirishga ko'maklashayapti. Fuqarolarning ham o'z navbatida soliq majburiyatini to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab to'lashiga sabab bo'lmoqda. Bojxona tizimida olib borilayotgan raqamlashtirish jarayoni ham so'ngi yillarda import va eksport sohasida katta silijishlarga sabab bo'lmoqda. Milliy statistika qo'mitasini xabar berishicha, 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi \$65,93 mlrdni tashkil etdi. 2019 yil yakunida esa bu ko'rsatkich 42,2 mlrd dollarni tashkil etgan edi[9]. Ko'rinib turibdiki, bojxona tizimida raqamlashtirish natijasida tashqi savdo aylanmasi sezilarli ravishda o'sgan. Bu albatta bojxona jarayonining soddalashishi va imkoniyatlar berilishi bilan bog'liq. Ushbu ko'rsatkichlarni yanada yuqori qilish uchun O'zbekistonda "**FinTex O'zbekiston**" Assotsiatsiyasi o'z faoliyatini boshlagan. U 2022-yil boshida moliyaviy texnologiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan yetakchi mutaxassislar tashabbusi bilan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotidir. Tashkilot regulyator va biznes vakillari o'rtasidagi konstruktiv muloqot uchun noyob maydon hisoblanadi. Ushbu maydonda xalqaro tajribani inobatga olgan holda innovatsion texnologiyalarga ekspert baho beriladi, shuningdek, moliyaviy texnologiyalar konsepsiyalari

va ularni joriy etish yondashuvlari ishlab chiqiladi. Assotsiatsiya fintech kompaniyalarning ovozi bo'lishga, kompaniyalar, regulyator, hukumat va keng jamoatchilik o'rtasida o'qitish, axborot almashinuvi va tarmoq yaratish (networking) uchun resurs va muhokama maydoni sifatida xizmat qilishga intilmoqda. Tashkilotda nafaqat yurtimizning balki chet davlat moliyaviy texnologiya sohasida yuqori bilimga ega mutaxassislar faoliyat olib bormoqda. Bu kabi tashkilotlarning mavjud bo'lishi moliyaviy texnologiyalarni yurtimizga yanada rivojlantirishga zamin yaratadi. Soliq va bojxona sohasida ham o'z navbatida yangi texnologiya, portal va tizimlarni samarali yo'lga qo'yilishga turtki bo'ladi. O'zbekiston FinTex Assotsiatsiyasi tomonidan tayyorlangan mamlakatdagi birinchi moliyaviy texnologiyalar bo'yicha qo'llanma mavjud. **FINTECH360** — yetakchi mahalliy va xalqaro soha ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan mustaqil o'qish uchun mo'ljallangan intensiv onlayn dasturdir. Unda FinTech sohasidagi asosiy tendensiyalar, innovatsiyalar va insaytlar haqida zarur malumotlar mavjud[10].

Year	GII Position	Innovation Inputs	Innovation Outputs
2020	93rd	81st	118th
2021	86th	75th	100th
2022	82nd	68th	91st
2023	82nd	72nd	88th
2024	83rd	71st	91st
2025	79th	69th	92nd

O'zbekiston **GII 2025** (Global innovation indeks 2025) reytingida keltirilgan **139 ta iqtisodiyot orasida 79-o'rinni** egallaydi. Global Innovatsiya Indeksi (GII) davlatlarning innovatsion salohiyatiga ko'ra ularni reytinglaydi. Taxminan 80 ta ko'rsatkichdan tashkil topgan ushbu indeks innovatsiya kiritmalari (inputs) va innovatsiya natijalari (outputs) guruhlariga bo'lingan bo'lib, innovatsiyaning ko'p qirrali jihatlarini qamrab olishni maqsad qiladi. 2025-yilgi indeksda 66 ball bilan Shvetsariya, 62-ball bilan Shvetsiya, 61 ball bilan AQSH, 60 ball bilan Korea, 59 ball bilan Singapur yetakchilik qiladi. Jadvalda O'zbekistonning so'nggi olti yil ichidagi reytinglari ko'rsatilgan. Ma'lumotlarning mavjudligi va GII modelining yangilanishi O'zbekistonning Global Innovatsiya Indeksi (GII) bo'yicha yilma-yil solishtirilishiga ta'sir qiladi. GII 2025 bo'yicha O'zbekistonning reytingi uchun statistik ishonchlilik intervali 70–85-o'rinlar oralig'ida baholangan[11, 12]. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonda ham moliyaviy texnologiyalarni yildan-yilga rivojlanayotganligidan dalolat beradi.



Ushbu jadvalda raqamlashtirilgan soliq tizimidan foydalanuvchilar foizi berilgan. Unga ko'ra, 60 yoshdan yuqori aholi 7,5 %, 45 yoshdan 7,5% , 25-45 yoshdan 20%, 18-25% deb baholangan[13]. Bu albatta fuqarolarning ehtiyoji bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Yuqori yoshdagi aholi soliq to'lash, tadbirkorlik faoliyati doir elektron xizmatlardan foydalanishga ehtiyoji kam va yetarlicha ko'nikmaga ega emas. Shuningdek ularning tizimiga ishonchi past, ya'ni ananaviy tizimni maqul ko'rishadi. Shu sababli bu ko'rsatkichlar sezilarli kam. Kichik yoshdagi aholi esa texnologiyalardan foydalanishga yetarlicha xabardor va tez-tez shu kabi elektron tizimlarga ehtiyoji ko'p tushadi. Shuningdek, yoshlar navbat kutishdan ko'ra istalgan vaqt, istalgan joyda elektron xizmatlardan foydalanishni afzal ko'rinishadi.

Qonunchilik hujjati O'zbekiston Respublikasining «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonuni soliq va bojxona to'lovlari raqamlashtirishning asosiy huquqiy bazasidir. Qonun:

- elektron pullar va masofaviy to'lovlarni qonuniylashtirdi (4, 15-modda);
- real vaqt rejimida onlayn to'lovlarni amalga oshirish imkonini berdi (14, 17-modda);
- axborot va kiberxavfsizlik talablarini majburiy qildi (7, 8-modda);
- naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgiladi (20-modda)[14].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi soliq-bojxona jarayonlarini raqamlashtirishda muhim hisoblanadi. Qonun quyidagilarni ta'minlaydi:

- elektron shartnoma va elektron hisob-fakturani qog'oz hujjatlarga to'liq tenglashtirdi (14-15-moddalar);
- elektron tijoratda majburiy elektron hisobvaraqa-faktura va virtual kassa qo'llanilishini belgiladi (23-modda);
- onlayn xaridlar bo'yicha soliq nazoratini avtomatlashtirish va real vaqt rejimida ma'lumot almashish imkonini berdi (23-modda);
- "eskrou" tizimi orqali xaridor va sotuvchi o'rtasida ishonchli hisob-kitoblarni joriy etdi (24-modda)[15].

Ushbu normalar proaktiv soliq hisobi va bojxona deklaratsiyasining avtomatlashuviga huquqiy zamin yaratmoqda.

MUHOKAMA

Estoniya dunyodagi eng ochiq va innovatsion iqtisodiyotlardan biridir. Mamlakatdagi raqamli xizmatlar - elektron imzo, onlayn soliq deklaratsiyasi, e-Biznes reestri va davlat ma'lumotlarining ochiqligi - tizimning shaffof va samarali ishlashini ta'minlaydi. Bu xizmatlar byurokratiyani kamaytirib, bizneslarning global raqobatbardoshligini oshiradi. Estoniyaning kuchli tadqiqot va raqamli infratuzilmasi esa uni innovatsiyalar markaziga aylantirgan. **e-Tax** - Estoniya Soliq va Bojxona Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan elektron soliq tizimi bo'lib, unda barcha soliq jarayonlari onlayn bajariladi. Har yili Estoniyada **soliq deklaratsiyalarining 99% elektron tarzda topshiriladi**.

Bu tizimda quyidagi xizmatlari mavjud:

- korxonalarining daromad solig'i, ijtimoiy soliq, ishsizlik sug'urtasi va pensiya jamg'armasi bo'yicha hisobot topshirish;
- QQS (NDS) bo'yicha deklaratsiya yuborish;
- alkogol, tamaki, yoqilg'i va qadoqlash bo'yicha aksiz to'lovlari deklaratsiyalarini topshirish;
- bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirish;
- jismoniy shaxslarning daromad solig'i deklaratsiyasini topshirish.

Norezidentlar soliq majburiyatlarini bajarish uchun rasmiy soliq vakilini tanlashi mumkin. Soliq vakiliga Soliq va Bojxona Kengashi tomonidan maxsus litsenziya beriladi va u norezident nomidan yuridik amallarni bajarishga haqli bo'ladi. Blokcheyn texnologiyasi soliq to'lovchilarning shaxsiy ma'lumotlarining buzilmasligi va xavfsizligini ta'minlab, tizimga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bundan tashqari, Estoniya soliq tizimi foydalanuvchilar uchun qulay tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, jismoniy shaxslar ham, korxonalar ham raqamli vositalardan bemalol foydalana oladi. Ushbu tashabbus nafaqat soliq intizomini oshirdi, balki samarali va shaffof soliq boshqaruvi bo'yicha butun dunyoga namuna bo'ldi [16]. O'zbekiston ham bu borada o'ziga xos tajribaga ega bo'lib bormoqda. Shuningdek, soliq.uz ilovasiga qo'shilgan QR-kod orqali hisob-fakturani tekshirish, soliq to'lovchining real vaqtdagi faoliyatini monitoring qilish kabi xizmatlar, xalqaro standartlarga mos kelmoqda. Bojxona tizimida raqamlashtirishda ham ko'plab davlatlar o'z platformalarini ishlab chiqmoqda. Ular orasida eng maqbul va ko'plab davlatlar namuna olayotgan Singapur bojxona tizimidagi raqamlashtirish jarayonidir. **Customs@SG veb-ilovasi** - bu sayohatchilarga Singapurga yetib kelishlaridan oldin istalgan vaqtda va istalgan joyda chet elda xarid qilingan tovarlari uchun boj yoki qo'shilgan qiymat solig'ini e'lon qilish va to'lash imkonini beruvchi qulay tizimdir. Agar sayohatchilarning shaxsiy bojxona imtiyozi yoki qo'shilgan qiymat solig'i chegirmasi miqdoridan ortiqcha xaridlari bo'lsa, ular **Customs@SG veb-ilovasi** orqali oldindan deklaratsiya topshirishlari va boj hamda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashlari mumkin. Bu holda ular Singapurga yetib kelganlarida bojxona to'lov ofisiga borishlari shart emas. To'lov amalga oshirilgach, sayohatchiga elektron pochta orqali xabarnoma yuboriladi, shuningdek, ular veb-ilovadan to'lov kvitansiyasini yuklab olishlari mumkin. Shundan so'ng sayohatchilar bojxona nazorat punktidan **Yashil yo'lak (Green Channel)** orqali chiqishlari mumkin. Agar ular tekshiruv uchun to'xtatilsa, mobil qurilmadagi elektron kvitansiyani yoki chop etilgan qog'oz nusxasini to'lov amalga oshirilganining isboti sifatida ko'rsatishlari mumkin [17]. O'zbekistonda joriy qilinayotgan "Yo'lovchi deklaratsiyasi" ham aynan Singapur namunasi asosida yo'lga qo'yilgan. Tizimda raqamlashtirish savdo ochiqligi va integratsiyani kuchaytirishga sharoit yaratib bermoqda. Bundan tashqari, Koreada ham **Customs@SG veb-ilovasi** kabi **UNI-PASS portal** yo'lga qo'yilgan. U bojxonaning barcha bosqichlarini eksport-import tozalovi, bojxona to'lovlarini yig'ish, yuklarini boshqarish, yagona oynali tizimi va axborotni boshqarish kabi ishlarning barchasini qisqa vaqt ichida bajarish imkonini beradi.

UNI-PASS tizimi ishga tushganidan so'ng Koreyada eksportni bojxona majburiyatlaridan tozalash ishlari 2 daqiqagacha, importni tozalash esa — 2,5 soatgacha, soliqlarni to'lash — 10 daqiqagacha qisqartirilgan[18]. Bu ko'rsatkichlar dunyodagi eng yaxshi natijalar sanaladi. O'zbekistonda ham shu kabi portallarni yo'lga qo'yish davlat uchun ham fuqarolar uchun ham yengilliklar beradi. Raqamlashtirish o'z navbatida bir qancha ijobiy o'zgarisglarga sabab bo'ldi. Xususan, jarayonlarning tezligi – soliq hisobotini topshirish vaqti o'rtacha 7 kundan 11 daqiqagacha qisqardi. Qog'oz hujjatlar aylanishining nisbatan kamayishiga sabab bo'ldi. Biroq, erishilgan yutuqlarga qaramay, bir qator muhim muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo raqamli savodxonlikning yetarli emasligi muammosi mavjud. 2024-yilda o'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra, 45 yoshdan oshgan fuqarolarning 56 % “my.soliq.uz”dan mustaqil foydalana olmasligini ta'kidlagan[19]. Ko'rinib turibdiki aholining ko'pchilik qatlami bu tizim haqida xabardor emas. Hududiy internet qamrovi esa qishloq joylarida past ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda. Bu moliyaviy texnologiyalardan foydalanuvchilarga qiyinchilik tug'dirib, foydalanish va xabardorlik ko'rsatkichlarini kamayishiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek kiberxavsizlik tahdidlari masalasi ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Blokcheyn texnologiyalarining keng ko'lamda joriy etilmaganligi kiberxavsizlikni yanada zaiflantirdi. Blokcheynning cheklangan qo'llanilishi deklaratsiyalar va tranzaksiyalarning o'zgartirib bo'lmaydigan saqlanishini ta'minlay olmayapti, bu esa ma'lumotlarning buzilishi va korrupsiya xavfini oshiradi. Xalqaro tajriba bilan solishtirganda, O'zbekiston 5 yilda Estoniyaning 15 yillik yo'lini bosib o'tdi, lekin sifat jihatidan hali orqada qolmoqda. Masalan, Estoniyada soliq deklaratsiyasini to'ldirish o'rtacha 4–5 daqiqa vaqt oladi, O'zbekistonda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 20–25 daqiqani tashkil etmoqda. Shu sababli yuqoridagi muammolarning oldini olish va moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida bir qancha taklif va yechimlarni keltirib o'taman. Avvalo, maktab va kollejlarda Axborot texnologiyalari faniga moliyaviy texnologiyalarga oid o'quv dasturlarini lozim. Hozirda maktablar “Axborot texnologiyalarini” fanidan faqat Word Excel va algoritmlashtirish bilan cheklanib qolgan. Ba'zi hududlarda esa bu jarayonlar ham mavjud emas. Innovatsiya - FinTech kelajagi, shu sababli yoshlarga maktabdan raqamlashtirish ko'nikmalarini lozim darajada o'rgatish kerak. Natijada yaqin kelajakda malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishga imkoniyati paydo bo'ladi. Bu O'zbekistonning IT Park va FinTech assotsiatsiyasi orqali rivojlanayotgan ekotizimiga mos keladi. Ikkinchidan, AI asosidagi risk-baholash tizimini ishga tushirilishi lozim. Bu tizim kiber xavfni vaqtdan oldin aniqlaydi va xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi. Hozirda bunday tizim Janubiy Korea, Buyuk Britaniyada va Singapurda allaqachon yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston hozirda bojxona xizmatida allaqachon “Yagona oyna” orqali AI ishlatmoqda. Ammo bu kelajakda yanada takomillashtirishni talab qiladi. Soliqda esa hali dastlabki bosqichda. Soliq qo'mitasida “AI Risk Engine”ni to'liq ishga tushirish lozim. Ya'ni mavjud bo'lgan “E-auksion” tizimini kuchaytirish orqali ham bunga erishish mumkin. Uchinchidan, 2030-yilgacha barcha soliq va bojxona xizmatlarini “proaktiv” modelga o'tkazish ya'ni, Estoniya modeli asosida davlat fuqaroning ma'lumotlarini o'zi to'playdi, fuqaro faqat tasdiqlaydigan tizimni joriy qilish lozim[20]. Hozirda O'zbekiston deklarativ ya'ni fuqarolar o'zi to'ldiradigan modelda. (hozirda ba'zi portal va tizimlar qisman proaktiv modelda) Shuningdek blokcheyn texnologiyalarini keng ko'lamda qo'llash muhim yechimlardan biri sanaladi. Blockchain texnologiyasi soliq va bojxona sohasini raqamlashtirishda muhim afzalliklarga ega. U ma'lumotlarni minglab serverlarda taqsimlab saqlagani uchun xavfsizlik darajasi juda yuqori bo'lib, buzib kirish deyarli imkonsiz. Har bir tranzaksiya o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda qayd etilgani sababli soliq va bojxona organlari barcha operatsiyalarni real vaqt rejimida shaffof kuzatib, nazoratni osonlashtiradi. Shartnomalar, deklaratsiyalar va to'lovlar avtomatik amalga oshirilib, vaqt hamda katta miqdorda mablag' tejalgani bilan birga, ma'lumotlar tez va xavfsiz almashinadi. Natijada, byurokratiya keskin qisqarib, soliq va bojxona jarayonlari yanada tez, arzon va ishonchli bo'ladi. Yuqoridagi chora-tadbirlar parallel amalga oshirilganda, O'zbekiston 2030-yilga kelib soliq va bojxona sohasida nafaqat MDH,

balki jahonning ilg'or davlati qatoriga kirishi mumkin. Eng muhim shart – siyosiy iroda va ta'lim sohasidagi tezkor islohotlardir. Zero ta'lim rivojlanish poydevori.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq va bojxona tizimlarini raqamlashtirish O'zbekistonning moliyaviy boshqaruvini zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim omil hisoblanadi. Elektron to'lovlar, onlayn ma'lumot almashinuvi, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va fintech yechimlarining joriy etilishi jarayonlarning shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Amaldagi me'yoriy-huquqiy baza ushbu jarayonlarning institutsional asosini mustahkamlab, xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlarini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, texnik infratuzilma va kadrlar salohiyatini rivojlantirish kabi masalalar yanada chuqur islohotlarni talab qilmoqda. Umuman olganda, raqamlashtirish soliq-bojxona tizimining barqaror, samarali va global integratsiyalashgan modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur maqola faqat ilmiy maqsadlarda amalga oshirilgan bo'lib, muallif ushbu tadqiqot jarayonida hech qanday shaxsiy, moliyaviy manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini ma'lum qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. What is Fintech? | IBM <https://www.ibm.com/think/topics/fintech>
2. Elektron soliq xizmatlari - <https://my.soliq.uz/main>
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi elektron sayti - <https://www.customs.uz/oz>
4. Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi rasmiy veb-sayti
5. 000 Pixel System Integrator https://diazpro.uz/wp-content/uploads/2022/11/datasheet-z-portal-20191126_ru.pdf
6. O'zbekiston qonunchiligi milliy bazasi - <https://lex.uz/uz/docs/-7357259>
7. FinTech & Banking Forum 2025 <https://fiba360.uz/>
8. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti — www.soliq.uz
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti — <https://stat.uz/uz/>
10. Fintech Association Uzbekistan — <https://fintech-association.com>
11. Global Innovation Indeks — <https://www.wipo.int/en/web/global-innovation-index>
12. WIPO — World Intellectual Property Organization 2025 report, Uzbekistan Ranking in Global Innovation in 2025
13. Yunusova M.S. Elektron hukumat va davlat boshqaruvini raqamlashtirish: Davlatboshqaruvi yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma / M.S. Yunusova. – Toshkent: Dimal,2025. – 88 b.
14. O'zbekiston qonunchilik milliy bazasi — <https://lex.uz/docs/-4575786>
15. O'zbekiston qonunchilik milliy bazasi— <https://lex.uz/docs/-6213382>
16. International Journal for Multidisciplinary Research (IJFMR), Fintech's Role in Automating Taxation and Compliance Mr. Advik Dhingra Student, Air Force Bal Bharati School.

17. Customs@SG WEB APPLICATION <https://www.customs.gov.sg/eservices/customs-sg-web-application/>
18. World Customs Organization— UNI-PASS: Korea's Customs modernization tool- WCO news, February.2016
19. UNDP Annual report, 2024
20. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI. "YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA O'ZBEKISTON BANK-MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMI, 2025-YIL 28-MAY MASALALARI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMI, 2025-YIL 28-MAY

